


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**70820102 – Manzarali bog'dorchilik va landshaft magistratura
mutaxassisligining**

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “ 1 ” _____ 08 _____ dagi 244 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
	Bibliografik ma’lumotlar	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

1. Umumiy tavsifi

70820102 – Manzarali bog‘dorchilik va landshaft magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta‘lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta‘limda magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talablari 70820102 – Manzarali bog‘dorchilik va landshaft magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim muassasasining magistrantlari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish; O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, davlat boshqaruvi organlari, O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi agentligi tizimida manzarali daraxt, buta o‘simliklarining urug‘chiligini tashkil etish, ko‘chatlarini yetishtirishning zamonaviy texnologiyalarini qo‘llash, manzarali ko‘chatzorlarni loyihalash, tashkil etish va foydalanish, manzarali bog‘dorchilikni tashkil etish, manzarali o‘simliklar holatining monitoringi, manzarali daraxt-butalarning turli mintaqalar uchun assortimentini tuzish, introduksiyasi va iqlimlashtirish, ilmiy

professional ta’lim muassasalarida hamda oliy o‘quv yurtlari va kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida mutaxassislikka oid kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida landshaft dizayner, tadqiqotchi-pedagog.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *pedagogik faoliyat;*
- *tashkiliy–boshqaruv;*
- *loyihaviy–texnologik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

70820102 – Manzarali bog‘dorchilik va landshaft magistratura mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashv etish;

ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

Pedagogik faoliyatda:

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o‘quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv-metodik majmualarni mukammal o‘zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, o‘z ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligini talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbiy etika qoidalariga rioya qilish;

manzarali bog‘dorchilikda yangi manzarali daraxt-butalar turlari va navlarini tanlash, ko‘paytirish usullari hamda yetishtirish texnologiyalari bo‘yicha o‘rmon xo‘jaliklari va manzarali ko‘chatchilikka ixtisoslashgan xususiy korxonalar hamda shaxsiy tomorqa egalariга maslahat berish;

manzarali bog‘dorchilikda innovatsion ishlanmalar bo‘yicha tahlillar tuzish;

magistr ixtisosligiga mos mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo‘yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;

pullik ta‘lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish, ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

manzarali ko‘chat yetishtiruvchi xo‘jaliklarda daraxt va butalar ko‘chatlarini yetishtirish, ularga shakl berish, zamonaviy issiqxonalarda gul ko‘chatlarini yetishtirish jarayonlarini loyihalashtirish;

landshaft dizayn loyihalarini ishlab chiqish;

fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etish;

iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni hisob-texnologik xaritalar asosida baholash.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o‘z faoliyatida me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e‘lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e‘lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e‘lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e‘lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalariga ega

bo‘lishi;

tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo‘limlari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

manzarali ko‘chat yetishtiruvchi xo‘jaliklarda daraxt va butalar ko‘chatlarini yetishtirish, ularga shakl berish, zamonaviy issiqxonalarda gul ko‘chatlarini yetishtirish ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo‘yicha ma‘lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish va monitoringini olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etishni qo‘llay olish;

ko‘kalamzorlashtirish obyektlarida va manzarali ko‘chatlarda inventarizatsiya o‘tkazishni bilish;

iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash, tarmoqlar va sohalar bo‘yicha ishlab chiqarish hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

amaliy faoliyatda instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish malakasiga ega bo‘lish.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

Mutaxassislik bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. Ilmiy amaliyot.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1380	46	1-3
1.01	ITMM1204	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	2
1.02	MFO‘MM1104	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	120	4	1
1.03	MBITUM1104	Manzarali bog‘dorchilikda ilmiy-tadqiqot uslublari	120	4	1
1.04	LANDDBM1106	Landshaft dizayni daraxt va butalari	180	6	1
1.05	SHKTM1406	Shaharsozlikda	180	6	1

		ko'kalamzorlashtirish tizimi			
1.06	MO'NAVVM1206	Manzarali o'simliklar navshunosligi	180	6	2
1.07	LANDIZM1306	Landshaft dizayni	120	4	3
1.08	MANBNM1306	Manzarali bog'dorchilik nazariyasi	180	6	3
1.09	IUGEM1306	Intensiv usulda gul yetishtirish	180	6	3
2.00		Tanlov fanlari	420	14	2,3
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	420	14	2,3
	Kvalifikatsiya	Landshaft dizayner, pedagog-tadqiqotchi			
		Jami:	1800	60	
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	1,2,3,4
		Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	(1,2,3,4)
		Ilmiy-pedagogik ish	360	12	(1,2,3)
		Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	360	12	4
		HAMMASI:	3600	120	

Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01


Tayanch so‘zlar:



kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o‘quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o‘qib o‘rganish natijalari, o‘quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, manzarali bog‘dorchilik, landshaft dizayn, gul yetishtirish, baholash, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o‘quv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, texnik qabul qilish, inventarizatsiya, o‘rmon bilan qoplangan maydonga o‘tkazish tartiblari, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o‘lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariy.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:


Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor  **S.Y. Islamov**

2024-yil «  » 
 M.O.:



KELISHILDI:

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi
Direktor**  **M. Boltabayev**



2024-yil «  » 
 M.O.:

**Namangan muhandislik-texnologiya
instituti**

Rektor  **O.O. Mamatkarimov**



2024-yil «  » 
 M.O.:

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya,
atrof-muhitni muhofaza qilish va
iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi
O‘rmon xo‘jaligi agentligi**



Direktor  **N.J. Bakirov**

2024-yil «  » 
 M.O.:

**O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot
instituti**

Direktor  **S.A. Arabov**



2024-yil «  » 
 M.O.: